


II. SANOAT




Viloyat sanoat korxonalarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlarining jadallashishi natijasida 2024-yilning yanvar-mart oylarida 4 889,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlanib, ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 2023 yilning tegishli davriga nisbatan 112,8 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida ko'proq qayta ishlash sanoatining ulushi 97,3 foizni tashkil etdi (2023 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 107,9 %). Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 1,7 foizni (ishlab chiqarish indeksi 105,3 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish ulushi 0,3 foizni (ishlab chiqarish indeksi 118,5 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 0,7 foizni (ishlab chiqarish indeksi 3,4 marta) tashkil qildi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi
(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish**
(2024 yilning yanvar-mart)


<i>Ko'rsatkichlar nomi</i>	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>2023 yil yanvar-martga nisbatan fizik hajm indeksi</i>
Jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi	4 889,9	112,8
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	35,2	3,4 m.
<i>Shundan:</i>		
tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat	35,2	3,4 m.
Qayta ishlash sanoati	4 756,5	107,9
<i>Shundan:</i>		
oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	307,0	119,5
ichimliklar ishlab chiqarish	3,5	69,1
to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	735,4	97,7
kiyim ishlab chiqarish	121,8	87,9
teri va unga tegishli mahsulotlarni ishlab chiqarish	0,3	47,0
yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	13,3	75,8
qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	19,5	88,0
yozilgan materiallarni nashr etish va aks ettirish	1,1	53,7
kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	142,4	121,0
Farmasevtika mahsulotlarini va preparatlarini ishlab chiqarish		
rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	48,2	42,0

davomi

<i>Ko'rsatkichlar nomi</i>	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>2023 yil yanvar-martga nisbatan fizik hajm indeksi</i>
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	-	-
boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish	405,7	164,9
metallurgiya sanoati	3,5	8,0
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	18,4	81,1
elektr uskunalarni ishlab chiqarish	131,0	94,5
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	3,7	101,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalarni ishlab chiqarish	3,3	943,4
Mebel ishlab chiqarish	48,5	108,1
boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	37,0	120,2
mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	8,8	77,4
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish	2704,1	112,8
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	83,9	105,3
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	14,3	118,5


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarida eng yuqori ulushi qayta ishlash sanoati korxonalari (97,3 foiz) hissasiga to'g'ri keldi.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida sanoat korxonlari tomonidan 4 889,9 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 112,8 foizni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat
(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)

2022-2024- yillarning yanvar-mart oylarida




2024- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 756,5 mlrd.so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,3% ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)

Paxta tolasi




O‘simlik yog‘i (tozalangan)



Tirkotaj polotnolar




Yumshoq bug‘doy va spelta uni





Joriy yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarining hissasi
(foiz hisobida)




Metallurgiya sanoati

0,1 %

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-mart oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 125,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,1 % ni fizik hajm indeksi esa 8,0 % ni ishlab chiqarish hajmi 3,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

8,3 %

Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-mart oylarida boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 8,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 79,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-mart oylar yakunlariga ko'ra, ulushi 8,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 164,9 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 405,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.





Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2,9 %



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 130,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni, fizik hajm indeksi 121 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 142,4 mlrd. so'mni tashkil etdi..




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

15,0 %

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 88,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 97,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 735,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.





Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish

6,3 %



Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi 7,0 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 85,2 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-mart oylarda ulushi 6,3 %ni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 119,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 307,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

1,0 %

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 121,1 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 42,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 48,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.





**Ichimliklar ishlab
chiqarish sanoati**

0,1 %



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-mart oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etgan boʻlsa, uning fizik hajm indeksi 94,3 % ni tashkil etgan. 2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga koʻra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 69,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 3,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi.




**Avtotransport vositalari,
treylarlar yarim tirkamalar
ishlab chiqarish**

55,3 %

Avtotransport vositalari, treylarlar yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-mart oylarida avtotransport vositalari, treylarlar yarim tirkamalar ishlab chiqarishning ulushi 42,1% ni, uning fizik hajm indeksi esa 2,0 martaga oshgan boʻlsa, 2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga koʻra, ulushi 55,3 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 112,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2 704,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi.






Elektr jihozlari ishlab chiqarish

2,7%

Elektr jihozlari ishlab chiqarish


2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 131,1 % ni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi 94,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 131,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, foizda

Jizzax viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush (Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmining yoqori foiz ulushi) G'allaorol tumani (56,2 %), Jizzax shahri (17,8 %) va Zafarobod (4,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti
turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)


Mahsulotlar nomi	O'lchov birligi	2024 yil yanvar-mart	2023 yilning yanvar-martiga nisbatan foiz
Ishlab chiqaradigan sanoat			
Paxta xom-ashyoni qayta ishlash	t	20 940,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi	t	6 843,0	69,5
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 1 navli	t	4 024,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 2 navli	t	2 706,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 3 navli	t	112,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 4 navli	t	1,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 5 navli	t	-	-
Paxta chigiti	t	10 512,0	80,3
Momiq	t	606,0	76,2
Tozalangan o'simlik yog'i	t	3 133,0	2,3 m
Chigitdan olingan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar	t	27 970,6	84,4
Soapstoklar (neytrallash jarayoni mahsuloti)	t	180,0	94,7
Yangi so'yilgan sovutilgan go'sht	t	148,9	-
Yumshoq bug'doy va spel'ta uni	t	4 494,9	73,1
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari)	t	1 733,0	7,3
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar	t	298,5	59,9
Portlandsement	t	389 071,8	101,1
«KIA» avtomobili	dona	4 980,0	149,5
«CHERY» avtomobili	dona	2 990,0	3,5 m.
«HAVAL» avtomobili	dona	205,0	-
Chakana savdo uchun qadoqlanmagan paxtadan yigirilgan bir qavatli ip	t	6 898,4	75,0



Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi G'allaorol tumani (56,2 %), shuningdek Jizzax shahri (17,8 %) ga to'g'ri keldi.





Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga G'allaorol tumani (14 662,1 ming so'm), Jizzax shahri (4 442,7 ming so'm) hamda Zafarobod (4 054,2 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichi (3 236,3 ming so'm)dan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Jizzax viloyati

1 585,5 ming.so'm

2022-yil yanvar-mart




2 566,4 ming.so'm


2023-yil yanvar-mart

3 236,3 ming.so'm

2024-yil yanvar-mart


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'sish sur'ati, %





Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi


Jizzax viloyati



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 092,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 22,3 % ni tashkil etdi.




Hududlar bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 092,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 22,3 foizni tashkil etdi. Hududlar kesimida ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi Arnasoy, Baxmal, Mirzacho'l va Yangiobod tumanlarida (100,0 %) yuqori ekanligini ko'rsatdi.




Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Do'stlik (18,8 %), Zafarobod (15,6 %) hamda G'allaorol (0,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.





Sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalari, birlikda
2024- yil 1-aprel holatiga



Hududlar miqyosida olib qaralganida, sanoat tarmog'ida yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahri (62 ta) Baxmal (42 ta) va Zomin (42 ta) tumanlarida kuzatildi.

Shuningdek, G'allaorol (34 ta), Sharof Rashidov (36 ta), Zarbdor (25 ta), Forish (13 ta), Paxtakor (12 ta), Mirzacho'l (17 ta), Do'stlik (10 ta), Arnasoy (14 ta), Yangiobod (6 ta) va Zafarobod (8 ta) tumanlarida ham sanoat tarmog'idagi yangi tashkil etilgan korxonalar faoliyat yuritib kelmoqda.